

## **Korrupsiyaga qarshi qoidalarining ASOSIY SHARTLARI**

1. Tomonlar shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarayotganda O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimi o‘z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yohud mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olish uchun quyidagi harakat qilmaydi:

- pora berishni taklif qilish yoki va‘da berish;
- tovlamachilik qilish;
- pora sifatida pul to‘lash;
- bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik berish.

Tomonlar ushbu harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha choralar ko‘rilishiga kafolat beradi.

2. Agar shartnoma bo‘yicha bir Tomon O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimining axloqqa to‘g‘ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo‘lgan faktlar duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

- “1008” ishonch telefoni;
- Telegram-kanali (“@antikorbot”);

Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

### **TOMONLAR:**

**Bajaruvchi:**

\_\_\_\_\_  
(F.I.Sh.)  
(imzo)\_\_\_\_\_

**O‘zbekiston Respublikasi  
adliya vazirining o‘rinbosari**

\_\_\_\_\_  
(F.I.Sh.)  
(imzo)\_\_\_\_\_

## **Korrupsiyaga qarshi qoidalarining ASOSIY SHARTLARI**

1. Xodim ushbu mehnat shartnomasi bo‘yicha o‘z xizmat vazifalarini bajarayotganda korrupsiyaviy xatti-harakatlarda qatnashmaslik, shu jumladan g‘ayriqonuniy imtiyozlarni olish yoki boshqacha tarzda g‘ayriqonuniy maqsadlarda o‘zining yoki boshqa shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga ta‘sir qilish uchun pul mablag‘lari yoki boshqa qimmatliklar ko‘rinishida:

pora taklif qilmaslik;

va‘da bermaslik;

pul to‘lamaslik;

tovlamachilik qilmaslik;

bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaslik;

pora olmaslik;

biron-bir shaxs foydasiga yoki biron bir shaxs xizmatlaridan foydalanmaslik;

mol-mulk yoki mulkiy huquqlarni olmaslik;

o‘z vakolatlarini suiiste‘mol qilmaslik majburiyatini oladi.

2. Xodim atrofdagi shaxslar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etish yoki unda qatnashishga tayyorgarlik ko‘rish sifatida baholanishi mumkin bo‘lgan xulq-atvordan o‘zini tiyishi shart.

3. Xodim O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining ichki hujjatlariga muvofiq manfaatlar to‘qnashuvi kelib chiqishini oldini olish choralarini ko‘rishi va manfaatlar to‘qnashuvi yoki uning kelib chiqish ehtimoli haqida o‘ziga ma‘lum bo‘lishi bilan darhol ish beruvchini yoki uning o‘rnini bosadigan shaxslarni xabardor qilishi shart.

4. Xodimlar orasida shaxsiy yoki boshqa shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab, xizmat majburiyatlaridan chetga chiqqan holda boshqa xodimlarning professional ish faoliyatiga aralashish, ma‘lumot so‘rash hamda qaror qabul qilishiga ta‘sir ko‘rsatish holatlari yuzaga kelganda adliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining ichki hujjatlariga muvofiq darhol quyidagi aloqa kanallari orqali:

“1008” ishonch telefoni;

Telegram- kanali (“@antikorbot”);

Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo’limining xizmat telefon raqamiga (71-207-04-64) xabar qilishi lozim;

shaxsan Adliya vazirining ijtimoiy tarmoqdagi manzillariga xabar qilinishi lozim.

5. Agar xodim O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan va sodir etilishi rejalashtirilayotgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi faktlarni aniqlasa, u ushbu ma’lumotni aloqa kanallari orqali O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatida ko’rsatilgan shaxslarga taqdim etishi shart.

6. Xodim O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining ichki hujjatlarida nazarda tutilgan korrupsiyaga qarshi talablarni buzgan taqdirda, qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

**Xodim:** \_\_\_\_\_  
(F.I.Sh.)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

*(3-ilova O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2020 yil 28 oktyabrdagi 204-um-son buyrug‘idagi tahrirda)*